

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (Namangan viloyati)

Sobirov Mahammadniyoz Tavakkal o'g'li

UBS “Menejment” kafedrasi o'qituvchisi

muhammadniyoz@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarining innovatsion boshqaruv faoliyatini mexanizmini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Kichik biznes sub'ektlarida innovatsion faoliyatni boshqaruv korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish hajmini normallashtirish. Yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va innovatsion boshqaruv mexanizmi qo'llanayotgan kichik biznes subyektlarining ish usullari tahlil qilingan. Innovatsion faoliyat boshqaruvining samarali amalga oshirilishi biznesni tez rivojlantirish, bozordagi o'z mavqeni mustahkamlash va raqobatchilardan ustunlikka ega bo'lish masalalari o'rganib chiqildi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, Novatsiya, Rebranding, Texnologik, Boshqaruv, Brend

KIRISH

Hozirgi biznes jarayoni shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir vaqtda, kichik biznes subyektlari raqobatda ustunligini saqlab qolishi va rivojlanishlari uchun innovatsion faoliyatni boshqaruv mexanizmini takomillashtirishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsiyalar nafaqat katta korxonalar uchun, balki kichik biznes uchun ham juda ham katta afzallik yaratadi. U yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqilishida, biznes muhitini optimallashtirish va mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlarni yaxshilanishiga olib keladi. Kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlanishi bir necha tartiblar orqali amalga oshiriladi: yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish, marketing strategiyalarini doimiy muvaznatda ushlab va yangilab borish, xizmatlar va mahsulotlarni talab darajasida sifatli qilish, boshqaruv tizimini bir me'yorda saqlash va biznes faoliyatini avtomatlashtirish. Hozirgi kunda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, online faoliyat va ekologik innovatsiyalar kichik biznes subyektlari uchun juda ham muhim hisoblanmoqda. Shuningdek, kichik biznesning innovatsiyalarga tayanishi uni yirik korxonalariga nisbatan tezroq rivojlanishiga imkon beradi. Me'yoriy resurslarga ega bo'lsa-da, kichik biznes egiluvchan boshqaruv tizimi, fikrlash va bozordagi raqobatga moslashish imkoniyati bilan innovatsiyalarni ijobiy joriy eta oladi. Lekin, kichik biznesda innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmini tatbiq etishda qator qiyinchiliklar ham mavjud. Moliyaviy taqchilik, tajribaning kamligi, yangi texnologiyalarni joriy etishdagi tavakkalchilik va bozorda raqobatning yuqori darajasi tadbirkorlar uchun asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli, biznes vakillariga innovatsion faoliyat yondashuvlarini to'g'ri tanlash, to'g'ri boshqarish va samarali strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizning innovatsion faoliyatini rivojlanish yo'lida tartibli bozor yo'llarini qo'llash va boshqarishga asoslangan biznes sub'ektlarning o'suvchan ilmiy-

texnika taraqqiyoti yutuqlariga tayanadi. Bu holda bilim, axborot va innovatsiyalar orqali raqobatbardoshlikni oshirishni imkoniyati paydo bo‘ladi. Innovatsion faoliyatni joriy etish orqali bozor mexanizmini takomillashtirish tovarlar raqobatbardoshligini oshirish, yuqori rivojlanish darajasini ushlab turish va yuqori rentabellikni saqlab qolinishini yagona yo‘l sifatida ko‘rish mumkin. Davlatlar iqtisodiyotini rivojlanishining innovatsion yondashuvlar orqali o‘tishi doimiy tarmoqlarni yangilab borilishini, avvalo, ularning innovatsion faoliyatda o‘shishini nazarda tutadi. Innovatsiyaga juda ko‘p olimlar va shaxslar turlicha ta‘riflar berishgani va hozirgi kunga qadar yakdil fikrlar mavjud emasligini ko‘rishimiz mumkin. Bizning nazarimizga ko‘rsa Innovatsiyaga quyidagicha ta‘rif berish to‘g‘ri deb bilamiz.

Innovatsiya – bu o‘sayotgan bozor holatidan kelib chiqqan holda mahsulot va ko‘rsatiladigan xizmatni mavjud vaziyatga moslashtirish va takomillashtirish uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual salohiyati, uning qarashlari, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va rasionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

“Innovatsion faoliyat” atamasi negizida, avvalambor, “innovatsiya” so‘zi, ushbu so‘z negizining o‘zida esa “novasiya” so‘zi yotadi. Innovatsiya - (ing. innovationas — kiritilgan yangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy- texnika yutuklari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralari qo‘llanilishi.

O‘zbek tili lug‘atiga bu so‘zlar xorijiy tillardan kirib kelgan. Chunonchi, inglizcha “innovation”, ruschasiga “innovatsiya” so‘zi lug‘atlarda “novovedenie”, “novatorstvo” sifatida talqin etilgan. Rus tilida berilgan talqinga ko‘ra bu so‘z o‘zbek tiliga “yangilik kiritish”, “yangi usul”, “kiritilgan yangilik” kabi ma'nolarda o‘girilgan va izohlangan. “Novasiya”, lotincha “novation” so‘zi rus tilidagi lug‘atlarda “izmenenie”, “obnovlenie”, o‘zbek tili lug‘atlarida esa “o‘zgarish”, “yangilanish” ma'nosida talqin etilgan.

“Innovatsiya” tushunchasi o‘zining yangi hayotini “innovatsion kombinasiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX asrning boshida Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qo‘llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. Y.Shumpeterning “The Theory of Economic Development” asarida innovatsion faoliyat va biznes faoliyatining iqtisodiy o‘shishiga ta‘siri haqida dastlabki tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Y.Shumpeterning innovatsiya nazariyasi hozirgi zamonaviy innovatsion boshqaruvga asos sifatida xizmat qiladi.

P.Drucker “Innovation and Entrepreneurship” innovatsion boshqaruvni strategik yondashuv sifatida o‘rganib uni tahlil qilib, muvaffaqiyatli biznes boshqaruvi uchun muhim omil sifatida ko‘radi.

C.Christensen innovatsion boshqaruvni disruptiv (buzg‘unchi) innovatsiyalar orqali biznesga ta‘sirini o‘rganadi va korporativ innovatsion strategiyalarni shakllantirishga oid muhim qadamlarni tashlaydi.

I.Nonakaning “The Knowledge-Creating Company” kitobi innovatsiyalarni boshqarishda bilim, ko‘nikma va tajriba almashinuvi zarurligini ta‘kidlaydi.

Tashkilotning ichki bo'g'inida innovatsion jarayonlarni yaratish usullari ko'rib chiqiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar innovatsion faoliyat boshqaruvining nazariy va amaliy jihatlarini ochib beradi. Shumpeter, Druker, va Christensenning asarlari nazariy asoslar uchun muhim bo'lsa, Chesbrough va Pisano kabi tadqiqotchilar esa hozirgi zamondagi aniq fikrlar orqali innovatsion yondashuvlarni takidlaydi. Amaliy jihatdan esa, Nonaka, Takeuchi va Brownlar innovatsion faoliyatni tashkilotlar ichida foydaliva samarali boshqarish bo'yicha tushunchalar beradi.

NATIJALAR

iqtsodiy tarmoqlarda innovatsion faoliyat boshqaruv mexanizmini qo'llanishi kichik biznesning ulushi % da

Ushbu ma'lumot statistika bo'limi tomonidan taqdim etilishi orqali tayyorlandi.

Shahar va tuman nomi	Qishloq Xo'jaligi	Sanoat	Chakana savdo aylanmasi	Umumiy xizmatlar	Yuk tashish	Yo'lovchi tashish	Qurilish ishlari	Investisiya
Viloyat bo'yicha	93,1	50,0	92,8	75,6	92,0	97,4	92,2	82,1
1 Namangan sh.	77,8	60,3	89,6	49,4	89,3	92,0	87,4	86,9
2 Davlatobod t.	-	57,9	96,1	56,6	98,1	91,6	90,7	-
3 Yangi Namangan t.	-	74,5	83,7	63,2	82,6	97,9	91,9	-
4 Mingbuloq t.	76,7	40,2	97,5	84,1	98,1	97,4	97,8	34,0
5 Kosonsoy t.	98,4	46,3	99,2	82,3	97,6	96,9	96,3	90,6
6 Namangan t.	94,5	81,1	91,3	85,0	97,9	98,0	89,6	56,1
7 Norin t.	94,2	99,9	95,4	82,7	97,8	97,9	97,6	71,8
8 Pop t.	81,2	78,2	93,2	72,6	82,4	97,9	45,7	89,9
9 To'raqo'rg'on t.	98,7	7,6	93,0	76,0	96,9	98,1	94,2	62,8
10 Uychi t.	96,9	70,2	99,3	81,3	95,5	97,4	98,2	93,0
11 Uchqo'rg'on t.	95,1	41,9	98,4	79,7	97,9	96,9	90,7	88,3
12 Chortoq t.	99,2	43,3	94,9	78,9	97,1	97,7	97,8	81,4
13 Chust t.	99,2	25,4	93,0	78,2	73,4	96,8	97,8	77,5

14 Yangiqo'rg'on t. 99,1 99,9 97,4 85,2 97,8 98,0 96,7 88,1

Yuqoridagi jadvalda Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarini innovatsion boshqaruv asosida ko'rsatkichlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, Namangan viloyatida hozirgi kunda kichik biznes sohasi qolgan viloyatlarga qaraganda bir barobar yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Viloyatda hozirgi kunda sanoat sohasi anchagina oqsayotgani (50%) ni tashkil etayotgani ushbu sohada anchagina innovatsion boshqaruvlarni amalga oshirish bir muncha qiyinchilik tug'dirayotganini ko'rishimiz mumkin. Viloyatda transport qatnovlari sezilarli darajada bo'lganligi aholini katta qismi ushbu sohada band ekanligini hisobga olgan holda innovatsiyalarni joriy etilishida ham anchagina yuqori ekanligini (97.4 %) ko'rishimiz mumkin.

Barcha natijalardan kelib chiqqan holda quyidagi innovatsion mexanizm orqali takomillashtirishni tavsiya etiladi.

Quyida Namangan viloyatida kichik biznesda innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha jadval tuzdim. Agar qo'shimcha ma'lumot yoki o'zgartirishlar kerak bo'lsa, aytishingiz mumkin.

1-jadval

Innovatsiya qo'llanish turi	Tasnifi	Amaliy qo'llash sohalari	Natijalar
Raqamli marketing asoslari	Ijtimoiy tarmoqlarda smm faoliyatini kuchaytirish	Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo	Mijozlar bazasi yaratiladi va swot tahlil qilish imkoni bo'ladi
Online operatsiyalar (to'lovlar)	Online o'tkazmalardan foydalanish (Payme, click va bank ilovalaridan)	Savdo va xizmatlar	Mijozlar uchun qulaylik bo'ladi va mijoz ko'payadi
Online hisob fakturalar	1C, CRM tizimlaridan foydalanish	Logistik ava xizmat ko'rsatish	Ish unimi oshadi va xatoliklar kamayadi
Aqlli texnologiyalar	Inson hissoyatlarini his qila oladigan texnologiyalardan foydalanish	Qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish	Resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish
Yangi turdagi hom ashyo va texnologiyalar	Ekologik toza va innovatsion mahsulotlardan foydalanish	Ishlab chiqarish, qurilish va tekstil	Sifat yahshilanadi va harajaat minimallasadi
Franchayzing	Qo'llanayotgan biznesdan foydalanish	Ovaqatlanish va savdo	Brendni namoyon qilish va tezda o'sish
Online savdo	Internet do'konlar, marketpleyslar	Chakana savdo, xizmatlar	Keng auditoriya
Robotatexnologiya	Suniy intellekt va 3 D printerlar	Kichik ishlab chiqarish	Tezlik oshadi va tannarx kamayadi
Xodimlarni baholash	KPI tizimi qo'llash	Barcha sohalarda	Ish sifati va taqsimot kamayadi

Tahlil va natijalar

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsion g'oyalarni o'z vaqtida amaliyotga, jumladan ilm-fanga, sanoatga keng tadbqiq etish - islohotlar samaradorligining bosh mezonidir. Innovatsiya bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Har qanday turdagi yangilik esa faqatgina yangilik emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida ta'sir etishi zarur. Innovatsiya bilim va g'oyaning mablag'ga aylanishidir. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo'llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

Innovatsiya - korxonalar yoki tashkilotning bozorga chiqarish (amaliyotga joriy qilish) uchun mo'ljallangan ijodiy faoliyatining samarasidir. Namangan viloyatida so'nggi yillarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar salmog'i quyidagi rasm ma'lumotlari orqali yoritib o'tamiz.

Namangan viloyatida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat quyidagicha:

Katta investitsion loyihalar:

- Loyiha soni va qiymati: Viloyatda umumiy qiymati 4 milliard AQSh dollariga yaqin bo'lgan 47 ta loyiha shakllantirilgan va hozirda ushbu loyihalar amalga oshirilmoqda.

- Taqdimot holatidagi loyihalar: 2024-yil 25-mart kuni Prezidentga qiymati 2,3 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan 18 ta loyiha taqdim etilgan.

- Loyihaviy hamkor davlatlar: Rossiya, Xitoy, Turkiya, Qirg'iziston, Qozog'iston Eron, BAA Fransiya, Germaniya, Avstriya, Italiya, Niderlandiya, Eron, Pokiston kabi mamlakatlarning kompaniyalari viloyatga investitsiya kiritmoqda.

- Sohalalar kesimida: Qurilish materiallari ishlab chiqarish, qurilish, elektrotexnika, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat, farmatsevtika, tibbiyot, konchilik, baliqchilik va boshqa sohalarni qamrab olgan.

- Joriy etilgan loyihalar: Xitoy davlati investorlari bilan hamkorlikda Chust tumanida mis qazib olish va qayta ishlash, Pokistonlik investorlar bilan To'raqo'rg'on tumanida sintetik mato ishlab chiqarish va bo'yash, Avstriya kompaniyasi bilan viloyat travmatologiya markazini jihozlash kabi loyihalar rejalashtirilgan.

- Ish o'rinlari soni: Ushbu 47 ta loyiha natijasida 50 mingga yaqin aholi ish bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston respublikasida o'tkazib kelinayotgan innovatsion loyihalar haftaligi InnoWeek da ham viloyat doimiy ravishda faol ishtirok etib keladi. Viloyatda 2022-yilda "InnoWeek-2022" innovatsion g'oyalar ko'rgazmasi o'tkazilgan va quyida ushbu ko'rgazma haqida ma'lumot keltirilgan.

O'tkazilgan sana: 2022-yil 20—21-iyul kunlari

Ishtirokchilar haqida ma'lumot: Ko'rgazmada 107 turdagi loyiha ishtirok etdi, jumladan, viloyatdagi oliy ta'lim muassalarida faoliyat yuritayotgan 60 nafar professor o'qituvchilar tomonidan 72 ta turdagi mahsulot va 31 ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan 35 turdagi mahsulotlar taqdim etilgan.

Yo'nalishlar: Tekstil, oziq-ovqat, qurilish materiallari, elektrotexnika, chirmasanoat, farmatsevtika, robototexnika kabi sohalardagi innovatsion ishlanmalar

namoyish etildi.

TechnoWays marafoni: Yoshlarni qo'llash maqsadida TechnoWays texnologik rivojlanish marafoni o'tkazilib, 53 nafar yosh ishtirokchilar innovatsion g'oyalari bilan qatnashgan. Eng yaxshi loyihaga ega 3 ta ishtirokchi mukofatlantirilgan.

Xorijiy investitsiyalar orqali viloyatdagi innovatsion faoliyat statistikasi:

2024-yil natijalari: Namangan viloyatida jami 1.2 milliard so'm asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 750.5 milliard so'mni (62.5%) tashkil etdi.

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, innovatsion faoliyatni rivojlanishida moliyalashtirish alohida ahamiyatga ega bo'lib, u bir nechta manbalar hisobidan amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan 2024-yilda korxonalar va tashkilotning o'z mablag'i hisobidan 4.9 trln so'm, chet el investitsiyalari mablag'lari hisobidan 17.8 trln so'm, tijorat banklari kreditlari hisobidan 26.6 trln so'm va boshqa mablag'lar hisobidan 3.9 trln so'm so'm mablag' sarflangan. 2024 yilda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish qolgan yillarga nisbatan 2-3 barobarga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

Kichik biznes subyektlarida innovatsion faoliyatni boshqaruv mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qiyosiy tahlil

Viloyatda kichik biznes subyektlarida innovatsion faoliyat boshqaruv mexanizmini qo'llanish tahlili natijasida ushbu faoliyatni rivojlanishiga to'siq bo'luvchi bir nechta muammolarni ham ko'rish mumkin. Jumladan, davlat tomonidan innovatsion faoliyatni rag'batlantirish tizimini to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va juda ham pastligi; ushbu sohaga tegishli bo'lgan mutahassislarining kamligi yoki bilim va ko'nikmalari qoniqarli darajada emasligi; oliy ta'lim va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida integratsiya mavjud emasligi, viloyatda texnoparklar faoliyati yo'lga qo'yilmaganligi, marketing tadqiqotlar va tahlillarni olib boruvchi, ishlab chiqarishni loyihalashtiruvchi korxonalarni kamligi, konsalting xizmati yo'lga qo'yilmaganligi, ma'lumotlar olinishida bir nechta qiyinchiliklar yuzaga kelishi, ko'plab ma'lumotlar oshirib ko'rsatilishi innovatsion dasturlar, yangi texnologiyalar, mashina va jihozlar sotib olishdagi muammolar va boshqa shu kabilarni shular jumlasiga kiritishimiz mumkin.

Innovatsion faoliyatni rivojlanishiga yirik ta'sir etuvchi omillar quyidagilar: Davlat tomonidan sohaga yuqori e'tibor pastligi, davlat aralashuvi yuqoriligi, hususiy sektor sohada yo'qligi, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni prognoz qilishni qiyinligi, takomillashmagan va tez o'zgaruvchan qonunchilik bazasi, ta'lim sohasida mutaxassislarni tayyorlashning past darajasi, inqirozlar, makroiqtisodiy beqarorliklar, investitsiyalarni himoyasizligini his etish va boshqa shu kabilalar.

Barchamizga ma'lumki, innovatsion faoliyatdagi ushbu muammolarni bartaraf etilishi, sohani rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, innovatsion faoliyatni boshqarish yangilik va tadqiqotlarni rivojlantirish uchun davlat tomonidan yaratiladigan shart-sharoitlar, ijtimoiy omillar, inson kapitalini rag'batlantirish va motivlashtirishga bog'liqdir, eng asosiysi intellektual kapital bilan bog'liqdir.

Xulosa

Innovatsion faoliyat boshqaruv mexanizimining takomillashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy tomonlarining tahlillariga asoslanib quyidagi xulosani berishimiz mumkin: innovatsiya kichik biznes subyektlarida moliyaviy, texnik-texnologik, tashkiliy, inson resurslari va boshqa resurslarni bozor talabini qondiruvchi mahsulot va xizmat ko‘rsatishni yangilash tushiniladi. Bu kichik biznes subyektlarini innovatsion qarashlarini shakllanishi sifatida ko‘rish mumkin. Aniq metodikalardan foydalanish kichik biznes subyektlarini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish motivlashtirish va istiqbollashning innovatsion boshqaruv strategiyasini yaratish imkonini beradi.

Innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmini takomillashtirishda quyidagilarni taklif etamiz:

1. Kichik biznes subyektlarida innovatsion faoliyatni boshqarish va uning samarasini oshirishda aniq ma‘lumotlar ba‘zasini shakllantirish (Big data) va ularni amaliyotga joriy etilishini ta‘minlash. Bunda ma‘lumotlar ba‘zasidan kelib chiqqan holda bozor talabidan kelib chiqib mahsulot chiqarish mumkin bo‘ladi. Mahsulot sifati va tannarxi ham optimallashtirish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

2. Ilmiy-innovatsion faoliyatni boshqarishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni oshirish va ortiqcha hujjatbozlikdan voz kechish orqali ilmiy loyihalarni moliyalashtirish online holda amalga oshirish.

3. Innovatsion faoliyat bilan shug‘illanayotgan korxonalariga davlat tomonidan subsidiya ajratilish.

4. Innovatsion faoliyat keng qo‘llanayotgan davlatlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish va zaruriy mutahassislarni bilim va ko‘nikmlar olishi uchun amaliyotlarga yuborish.

5. Texnoparklar faoliyatini kengaytirish, oliy ta‘lim muassa professor o‘qituvchilar, mahalliy texnologiyaga qiziquvchi yoshlar va tadbirkorlarni bir biriga integratsiya qilish.

Umumiy qilib aytilganda, innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali kichik biznes subyektlarini faoliyatini bir necha barobarga oshirish va ularni xalqaro maydonda va ichki bozorda mahsulotlarini raqobatbardosh qilish imkonini beradi. Bu orqali mamlakat iqtisodiyotini raqobatbardoshligini oshirish va dunyo maydoniga raqobatbardosh mahsulotlar olib chiqilishiga erishiladi. Bir necha yillardan buyon mamlakatimiz Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishga intilib kelmoqda bu mamlakatda innovatsion boshqaruvni ham oshirish zarur ekanligini ko‘rsatadi. Dunyo mamlakatlarida hozirgi kunda innovatsion boshqaruv biznes sohalarida keng qo‘llanib kelinmoqda. Hozirgi vaqtda faqatgina yahshi mahsulotgina ishlab chiqarishni o‘zi kamlik qiladi. Shu boisdan ushbu sohani yanada rivojlantirish va yangicha yo‘nalishlar olib kirilishi zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020yil 24 iyuldagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-630-sonli Qonuni. <https://lex.uz/ru/>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida ilg‘or texnologiyalar markazini tashkil qilish to‘g‘risida” PQ-3674-sonli qarori. https://lex.uz/pages/forpda.aspx?lact_id=3693976
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi «2019 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5544-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.I harfi. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. -492 b
6. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. <https://president.uz/uz/lists/view/1328>
7. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. "O‘zbekiston" NMIU , 2018, 486 bet
8. Vodachek L., Vodachkova O.. Strategiya upravleniya innovatsiyami na predpriyatii. Moskva, Ekonomika, 1989.-167 s.
9. Makarenko V.A. Sovremenny slovar. 2 t. –M.:2000
10. Nechaev V.I.Mixaylushkin P.V. Ekonomicheskii slovar.- Krasnodar.:Krasnodar, “Atri” 2011. -464 s.
11. Pxirodko V. I., Lyashko F. E.. Innovatsionniy menedjment v aviastroenii: Uchebnoe posobie. – Ulyanovsk: UIGTU, 2003. –70 s
12. Saidov M.H. Oliy ta‘lim iqtisodiyoti, investisiyalari va marketingi: O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya, 2003 B.74
13. Stepanova I.P. Innovatsionniy menedjment. Uchebnik. 2014.
14. Taraxtieva G.I.Innovatsion menejment.Toshkent.:Fan va texnologiya. 2013, -208 b.
15. Toshmurodova B.E., Jiyanova N. «Innovatsiya faoliyatni moliyaviy rag‘batlantirish». O‘quv qo‘llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006.-110 b.
16. Tichinskiy A.V. Upravlenie innovatsionnoy deyatelnostyu kompaniy: sovremennie podxodi, algoritmi, opit. Taganrog: TRTU, 2006
17. Upravlenie innovatsionnimi proessami: uchebnoe posobie / V.V. Jarikov, I.A. Jarikov, V.G. Odnolko, A.I. Evseychev. – Tambov : Izd-vo Tamb. gos. texn. unta, 2009, – 180 s.
18. Utkin E.A. Upravlenie kompaniyami. Moskva, 1997.-304 s
19. Xotamov I., Mustafakulov Sh., Isakov M., Abduvaliev A.. Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisodiyot, 2019 y., - 483 b.
20. Ekonomika innovasiy: Uchebnoe posobie. — M.: Ekonomicheskii